“T A S D I Q L A Y M A N”
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
o‘rinbosari
X.R. Raupov
2025-yil “ 05 ” 12

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ huzuridagi
Jamoatchilik kengashining
YIG‘ILISH BAYONI № 13/2025

Navoiy shahri **2025-yil “ 05 ” 12**

Raislik qiluvchi: X.R.Raupov -Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari

Taklif etildi: M.D.Alqarov – Bosh direktorning loyihalarni boshqarish va kapital qurilish bo‘yicha o‘rinbosari

Ishtirok etdi: Kengash a’zolari *(ro‘yxat bo‘yicha)*

KUN TARTIBI:
Kombinatni 2030-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturida belgilangan vazifalar to‘g‘risida

(Raupov, Alqarov, Rasulov, Jo‘raev, kengash a’zolari, ... Raupov)

Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.Raupov raisiligida Jamoatchilik kengashi a’zolarining kengash Nizomi va ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi tahliliy-tanqidiy muhokama qilindi va kengash faoliyatini yanada kuchaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda mavzu yuzasidan Bosh direktorning loyihalarni boshqarish va kapital qurilish bo‘yicha o‘rinbosari M.Alqarov, Kapital qurilish boshqarmasi boshlig‘i K.Rasulovlarning axborotlari tinglandi. Ta’kidlandiki, kombinatni 2030 yilgacha barqaror rivojlantirish dasturi tasdiqlangan bo‘lib, unda investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 2030 yilgacha 125 tonnaga yetkazish mo‘ljal qilingan va bu borada barcha imkoniyatlar mavjud.

Kun tartibidagi mavzuni muhokama etib, yig‘ilish
QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.R.Raupovning kun tartibiga doir takliflari, shuningdek, Bosh direktorning loyihalarni boshqarish va kapital qurilish bo‘yicha o‘rinbosari M.Alqarov, Kapital qurilish boshqarmasi boshlig‘i K.Rasulovlarning axborotlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Jamoatchilik kengashi a’zolariga kengash Nizomi va ish rejada belgilangan vazifalarni izchil ta’minlash hamda berilgan vakolatdan kelib chiqib, o‘z faoliyatlarini yanada kuchaytirish ko‘rsatib o‘tilsin.
3. Ushbu yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Bayonlashtirdi: **A.Jo‘raev**